

**INLGIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MEHMONXONA
TERMINLARINING QIYOSIY TAHLILI**

*Termiz davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti
Gumanitar yo'naliishlarda xorijiy tillar kafedrasи o'qituvchisi
Mirzoyeva Laylo Raxmonovna
laylomirzoyeva38@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida mehmonxona xizmatlariga oid terminlarning shakllanishi, tarjima usullari, semantik mazmuni hamda ularning madaniy kontekstda qo'llanishi qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, har ikki tildagi terminlarning o'xshash va farqli jihatlari misollar asosida yoritilgan.

Abstract. This article provides a comparative analysis of hotel-related terminology in English and Uzbek, focusing on word formation, translation methods, semantic features, and cultural usage. Similarities and differences are highlighted through practical examples.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ терминов, используемых в гостиничной сфере на английском и узбекском языках. Рассматриваются особенности перевода, семантики и культурного контекста.

Kalit so'zlar: Mehmonxona terminlari, tarjima usullari, lingvistik tahlil, qiyosiy tadqiqot, turizm sohasida til, o'zlashtirilgan so'zlar, xizmat ko'rsatish tili, inglizcha terminlar, madaniy tafovutlar, semantik tafovut, leksik analiz, tarjima nazariyasi, professional leksika, xizmat tili, terminologik muammolar, til siyosati

Keywords: Hotel terminology, translation methods, linguistic analysis, comparative study, language in tourism, borrowed terms, service language, English hotel terms, cultural differences, semantic differences, lexical analysis, translation theory, professional vocabulary, hospitality industry language, terminology issues, language policy

Ключевые слова: гостиничные термины, методы перевода, лингвистический анализ, сравнительное исследование, язык в туризме, заимствованные слова, язык обслуживания, английские термины в гостиничном деле, культурные различия, семантические особенности, лексический анализ, теория перевода, профессиональная лексика, язык индустрии гостеприимства, терминологические проблемы, языковая политика

KIRISH. Zamonaviy dunyoda turizm va mehmonxona sohalarining keng rivojlanishi turli tillarda xizmat ko'rsatish terminlarining shakllanishi va qo'llanilishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, ingliz tili bu sohada global til sifatida etakchilik qilmoqda. O'zbek tilida esa bu terminlarning ko'pchiligi tarjima orqali yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirish yo‘li bilan kirib kelgan. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida mehmonxona xizmatlariga oid terminlar qiyosiy tahlil qilinadi. Tilshunoslikda tarjima jarayoni faqatgina so‘zma-so‘z almashtirish emas, balki madaniy kontekstni, situatsion moslikni va terminlarning funksional yukini ham hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Ayniqsa, mehmonxona va xizmat ko'rsatish sohasida ishlatiladigan terminlar ko‘pincha madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi. Misol uchun, ingliz tilida keng qo'llaniladigan “bed and breakfast” atamasi o‘zbek tiliga faqatgina “yotoq va nonushta” tarzida emas, balki bu turdagи xizmatlarning umumiyligi ko‘rinishini aks ettiruvchi tushuncha sifatida tarjima qilinishi kerak. Shuningdek, tarjimon ushbu termin ortida yotgan iqtisodiy model, mijozlar segmenti va xizmat sifati kabi elementlarni ham hisobga olishi lozim.

Bundan tashqari, mehmonxona sohasida global til sifatida ingliz tilining ustunligi ko‘plab boshqa tillarda ushbu sohadagi terminlarning inglizchadan to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirilishiga olib kelmoqda. Bu holat, bir tomondan, xalqaro muloqotni yengillashtirsa, ikkinchi tomondan esa ona tilidagi terminlarning yo‘qolib ketish xavfini tug‘diradi. Shu sababli, lingvistlar va tarjimonlar zamonaviy terminologiyani o‘zbek tiliga moslashtirishda muvozanatli yondashuvni tanlashlari kerak: ya’ni, bir tomondan global til bilan uyg‘unlikda bo‘lish, ikkinchi tomondan

esa milliy tilning leksik boyligini saqlab qolish.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidan o'zbek tiliga mehmonxona atamalarini tarjima qilishda eng samarali usullardan biri – bu ta'riflovchi tarjima (descriptive translation) va kontekstual almashtirish (contextual substitution) usullaridir. Ayniqsa, “concierge”, “valet service”, “check-in”, “suite” kabi terminlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentga ega bo‘lmasani sababli, ularni tushuntirishli tarzda ifodalash yanada maqsadga muvofiqdir. Shu jihatdan, tarjimonning terminologik kompetensiyasi va madaniy bilim darajasi asosiy omil hisoblanadi.

LINGVISTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINKLARNING SHAKLLANISHI

Ingliz tilidagi mehmonxona terminlari qisqa va aniq bo‘lib, xizmatning mazmunini ifodalaydi: *check-in*, *check-out*, *lobby*, *room service*, *reservation* kabi. O‘zbek tilida esa ba’zan to‘liq tarjima qilinadi (*oldindan buyurtma qilish*), ba’zan inglizcha shakli saqlanadi (*resepshen*).

Masalan:

- *Reception* → Resepshen / Qabulxona
- *Check-in* → Chek-in / Ro‘yxatdan o‘tish
- *Housekeeping* → Tozalash xizmati

MADANIY KONTEKST VA MA’NODAGI FARQLAR

Ingliz tilida har bir xona turi aniq tasnifga ega:

- *Single room* – Bir kishilik xona
- *Double room* – Ikki kishilik (bitta karavotli)
- *Twin room* – Ikki alohida karavotli xona
- *Suite* – Lyuks xona

O‘zbek tilida bu terminlar ko‘pincha tavsif asosida tushuntiriladi, bu esa tarjima jarayonida madaniy tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi.

TARJIMA USULLARI: TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI, TAVSIFIY VA O‘ZLASHTIRUV

Terminlar tarjimasida quyidagi usullar kuzatiladi:

1. **To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima:**

Room key → Xona kaliti

2. Tavsifiy tarjima:

Housekeeping → Xonalarni tozalash xizmati

3. O'zlashtirish yo'li bilan:

Lobby, Concierge, Bellboy so'zlari ko'pincha asliyatida ishlatiladi

AMALIY MISOLLAR ORQALI QIYOSIY TAHLIL

Quyida ingliz va o'zbek tillaridagi ayrim muhim terminlar taqqoslanadi:

- *Lobby* – Vestibul yoki Kirish zali
- *Concierge* – Xizmat ko'rsatuvchi yordamchi shaxs
- *Bellboy* – Yuk tashuvchi / Xizmatchi yigit
- *Suite* – Lyuks xona

Ushbu atamalarni to'g'ri tarjima qilish, xizmat sifati va mehmonlar bilan aloqa samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA. Ingliz va o'zbek tillarida mehmonxona terminlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi atamalar qisqa, aniqligi yuqori va xalqaro standartlarga asoslangan. O'zbek tilida esa ko'proq tavsifiy ifodalar qo'llaniladi. Bu esa xizmat ko'rsatish sifati va mijoz bilan muloqotda o'z aksini topadi. Tarjimada aniqlik, qulaylik va madaniy moslashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun ushbu terminlarni rasmiylashtirish, yagona lug'aviy standartlarni yaratish va turizm sohasida til siyosatini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oxford English Dictionary of Tourism and Hospitality. Oxford University Press, 2020.
2. Yoqubov S. "Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima nazariyasi." Toshkent, 2019.
3. Karimova D. "O'zbek tilida xizmat ko'rsatish madaniyati va tarjima muammolari." Filologiya ilmiy jurnali, 2021.
4. Cambridge Dictionary of Hotel and Restaurant English, 2018.
5. Saidov A. "Lingvistik tarjima asoslari." TDPU, 2022.